Muzey fondi yangi topilmalar bilan boyidi

O‘zR FA O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi mamlakatimizdagi eng salohiyatli muzeylardan biri hisoblanib, bugungi kunda uning zahirasida 300.000 dan ortiq osori-atiqalar saqlanib kelinmoqda.

Muzey fondlarini boyib borishida hududlarga qilingan arxeologik va etnografik ekspeditsiyalarda aniqlangan yangi topilmalar hamda aholi tomonidan topshirilgan osori-atiqalar muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda Muzeyning arxeologiya va numizmatika fondi bojxona tizimi xodimlari tomonidan taqdim etilgan 220 dona 92 turdagi ashyolar to‘plami bilan boyidi. Bu ashyolar tariximizning qadimgi, ilk va o‘rta asrlar davriga oid bo‘lib, katta tarixiy ahamiyatga egadir.



